

XODIMLAR KASABA UYUSHMA QO'MITASI



**Xodimlar kasaba uyushma
qo'mitasi raisi**



Kasaba uyushma faollari

1960 yildan boshlab Andijon Davlat tibbiyot instituti xodimlar kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi lavozimida quyidagi professor-o'qituvchilar faoliyat yuritganlar:



Dotsent Gordienko
Sergey Mefodievich
(1960-1962)



Professor G'aniev
Boqijon G'anievich
(1963-1964)




Dotsent Musaev
Hasanboy
YUsupovich
(1964-1965)



Mamajonov
Hasanboy
Inamovich
(1965-1967y)



Dotsent Yo'ldoshev
To'xtasin
Ahmadjonovich
(1967-1971)




Dotsent
Dadamirzaev
Jo'raxon
Dadamirzaevich
(1971-1974)



Dotsent Ustinov
Vladislav
Aleksandrovich
(1975-1979)



Dotsent Saidboeva
Lola
Muxamedovna
(1980-1981)



Dotsent Mirzaev
Karimjon
Mirzaevich
(1981-1984)



Dotsent Rozina
Valentina Fedorovna
(1984-1986)



Dotsent Qilichev
Raufjon
Mirzajonovich
(1987)



Dotsent Jo'raboev
Baxtiyorjon
Normatovich
(1987-2004)



Dotsent Mirzaev
Akram Karimovich
(2004-2007 yillar)



Farhodjon
Raxmanovich
Xanapiyaev
(2007 -2013 yillar)

2007 yil aprel oyidan talabalar va xodimlar kasaba uyushma qo'mitalari birlashtirilib, birlashgan qo'mitaga F.R.Xanapiyaev rais etib saylandi. 2008 yil 1 sentyabridan birlashgan qo'mitadan xodimlar kasaba uyushma qo'mitasi yana alohida bo'lib ajralib chiqdi.

Qo‘mitaga 2013 yil mart oyigacha travmatologiya, ortopediya, neyroxirurgiya, xarbiy dala jarrohligi va talofatlar meditsinasi kafedrasida assistenti F.R.Xanapiyev raislik qilib keldi. 2013 yil 1 mart kundan boshlab xodimlar kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi lavozimida oliy ma‘lumotli huquqshunos, sog‘liqni saqlash va kasaba uyushmalari organlarida uzoq yillar ishlab tajriba orttirgan Dexkanov SHaxobidin Onarboevich ishlab kelmoqda.

Kasaba uyushma qo‘mitasi raisi va uning a‘zolari o‘z davrida institut ma‘muriyati bilan hamkorlikda xodimlarni ijtimoiy – iqtisodiy, xuquqiy manfaatlarini himoya qilish, ular o‘rtasida sport va sog‘lomashtirish ishlarini olib borish yuzasidan ibratli ishlarni amalga oshirib kelganlar. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan yillar boshida, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida kasaba uyushma faollari bu boradagi olib borgan ishlari salmoqli bo‘lib, ularning say‘i-harakati bilan kasaba uyushma qo‘mitasi xodimlarning haqiqiy tayanchi sifatida e‘tirof etildi. Institut ma‘muriyati bilan birga ijtimoiy sherikchilik asosida jamoa shartnomasi imzolaniib, uning asosida jamoada mehnat qonunchiligiga amal qilinishi, xavfsiz mehnat sharoiti yaratilishi va mehnatni muhofaza qilish, xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy, mehnatga oid xuquqiy manfaatlarini himoyalash, bu boradagi lokal me‘yoriy xujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, jismoniy tarbiya va sport ishlarini, xodimlar va ularning oila a‘zolarini sog‘lomashtirishni tashkil etish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Institut xodimlar kasaba uyushma qo‘mitasining faoliyati ko‘p jihatdan sog‘lomashtirish maskanlari bilan bog‘liq. 1971 yilda Farg‘ona viloyatining SHohimardon qishlog‘i yaqinidagi tog‘li YOrdon qishlog‘i yonbag‘irligida chodirlar qurilib, xodimlar dam oldirildi. Keyinchalik bu erda ham 50 o‘rinli uch qavatli dam olish korpusi qurilishi boshlanib, 1995 yilda bitkazildi. Dam olish maskanini barpo etishda o‘sha davrda o‘quv ishlari prorektori vazifasida faoliyat yuritgan professor K.M.Mirzaevning xizmatlari katta bo‘ldi. Dam olish maskaniga dastlab ko‘z kasalliklari kafedrasida dotsenti I.To‘xtaboev, klinika xodimlar kasaba uyushmasi qo‘mitasining raislari A.Sattorov va M.Iminovlar direktorlik qildilar. 1996 yildan 2005 yilga qadar bu vazifani jismoniy tarbiya kafedrasida katta o‘qituvchisi S.S.Akopov bajardi.

Xodimlarni sog‘lomashtirish ishlarini tashkil etish maqsadida 1978 yilda institut rektori, professor YU.O.Otabekov tashabbusi bilan viloyatimizning eng so‘lim va salqin joylaridan biri – Xonobod shahri yaqinidagi Topolino qishlog‘ida dam olish maskani tashkil qilindi. Ushbu dam olish maskanining birinchi rahbari etib faol jamoatchi R.K.Rahmonov tayinlangan. Keyinchalik, 1980 yildan 1994 yilgacha bu vazifani S.S.Akopov, 1995 yildan 2008 yilgacha E.Hasanov, 2008 yilda X.G‘ulomov, 2009 yilda Q.Umrzaqov, 2008 yildan hozirga qadar X.G‘ulomov boshqarib kelmoqda.

Kasaba uyushma qo‘mitasi ishini davr talablari asosida tashkil etishda qo‘mita a‘zolari dotsent B.N.Jo‘raboev, dotsent N.D.Davlatov, t.f.d. dotsent A.I.Xatamov, t.f.d. dotsent SH.K.Xakimov, dotsent Q.CH.CHartaqov, katta o‘qituvchi YU.Xolboev, katta o‘qituvchi N.Filatova, G.Yo‘ldosheva, X.G‘ulomov, M.Zuxriddinova faol ishtirok etib kelmoqdalar. SHuningdek, o‘z davrida xodimlar kasaba uyushma

qo‘mitasi a‘zoliciga saylanib, uzoq yillar davomida samarali faoliyat yuritgan biologiya kafedrası dotsenti X.A.Karimov, gigiena kafedrası mudiri, dotsent M.N.Nizomov, dotsent E.S.Dadaxo‘jaev, tibbiy biologiya kafedrası assistenti, keyinchalik institut agronomi vazifasida ishlagan A.B.Bahromov, ftiziatriya kafedrası assistenti L.B.SHvars, 1969 yildan 1981 yilgacha xodimlar kasaba uyushma qo‘mitasining hisobchisi bo‘lib ishlagan M.N.Azizova, 20 yildan ortiq qo‘mita hisobchisi vazifasida faoliyat yuritgan mehnat fahriysi M.Hamroqulova kabi marhum xodimlar, xozirda turli vazifalarda faoliyat yuritayotgan dotsent M.K.Karimov, dotsent M.YUsupova, dotsent X.Aliev, dotsent Q.Omonov, B.G‘aniev, Y.Zuxriddinov, M.Xojievlarning xizmatlarini alohida ta‘kidlash lozim. Ular xodimlar kasaba uyushma qo‘mitasining jonli tarixlaridir.

Andijon davlat tibbiyot instituti ma‘muriyati va xodimlar kasaba uyushmasi qo‘mitasi nafaqat viloyatda balki O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi oliy o‘quv yurtlari va muassasalari o‘rtasida o‘zining alohida o‘rniga ega. Professor-o‘qituvchilarni va xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy himoyalash masalasida namuna qilib ko‘rsatadigan darajada ko‘rsatgichlarga erishgan, bunda ayniqsa institut rektori, professor A.Q.SHadmanovning tashabbuskorligi, g‘amho‘rligi beqiyosdir. Jumladan, institutning ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedralari va ma‘muriy-xo‘jalik bo‘limlari xodimlaridan 300 nafardan ortig‘i uchun har o‘quv yilida byudjetdan tashqari mablag‘lar va institutning yordamchi xo‘jaliklarida etishtirilgan mahsulotlar hisobidan bepul tushlik tashkil qilinib kelinmoqda.Umumhalq bayramlarida institutning mehnatda o‘rnak ko‘rsatgan xodimlari moddiy va ma‘naviy rag‘batlantiriladi, ayniqsa har yili «Navro‘z» bayrami ko‘tarinki ruhda o‘tkazilishi an‘anaga aylangan.

Bayramlar arafasida institutda uzoq yillar samarali mehnat qilib qarilik gashtini surayotgan mehnat fahriylari holidan xabar olinadi va ular albatta moddiy-ma‘naviy rag‘batlantiriladilar.

Ijtimoiy sherikchilik tamoyillari asosida institut ma‘muriyati say‘i harakatlari bo‘yicha vafot etgan xodimlar oilasiga xodimning bir oylik maoshi miqdorida, xodimlarning yaqin qarindoshlari vafot etganda esa eng kam ish haqining ikki barobari miqdorida moddiy yordam beriladi.

Institutda mehnat qilib vafot etgan marhum xodimlar xotirasi abadiydir, chunki buning uchun institutda “XOTIRA BURCHAGI” tashkil etilgan hamda har bir umumhalq bayramlari arafasida marhumlarning xonadonlaridan xabar olinadi.



Institutda ma'muriyat va xodimlar kasaba uyushmasi qo'mitasining yaqin hamkorligi natijasida xodimlar kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi lavozimida ishlagan Xanapiyaev Farxod Raxmonovich O'zbekiston Sog'liqni saqlash va farmatsevtika xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi lavozimida ishlab kelmoqda, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining 2014 yil 25 avgustdagi 18-27 "o" – sonli Rayosat qaroriga asosan institut rektori, professor SHadmanov Alisher Qayumovich respublika kasaba uyushmalarining eng oliy mukofoti "EHTIROM NISHONI" bilan taqdirlandi.